

## **O'QUVCHILARGA INGLIZ VA KOREYS TILLARINI O'QITISH METODIKALARINING QIYOSIY TAHLILI**

**Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)

**Ergasheva Yulduzzon G'ayratovna**

Farg'ona davlat universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada ikki xorijiy til: ingliz va koreys tillarini o'quvchilarga o'qitish uchun turli metodikalar va ulardan foydalanish texnikalari yoritilgan. O'tgan 20 yil davomida xalqlar, davlatlar va tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar muqarrarlashib borganligi xorjiy tillarni bilishga katta ehtiyoj keltirib chiqardi. Insonlar turli sohalarda, xususan, savdo, turizm, hukumatlar o'rtasidagi xalqaro aloqalar, texnologiya, fan va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda chet tillarini ishlatishiga to'g'ri keladi. Bu maqolada keltirilgan o'qitish uslublaridan foydalanish xorjiy tillarni o'qitish samaradorligini oshiradi.*

**Kalit so'zlar:** Metod, koreys, ingliz tili, chet tili, o'qitish, texnikalar, fan va ommaviy axborot vositalari, aloqalar, texnologiya, samaradorlik, xalqaro.

## **COMPARATIVE ANALYSIS OF METHODS OF TEACHING ENGLISH AND KOREAN LANGUAGES TO STUDENTS**

### **ABSTRACT**

*This article illustrates various methods and techniques for teaching two foreign languages: English and Korean to students. Because of the fact that connections have been becoming inevitable among nations, states and organizations, a huge need for knowing another language for the last 20 years. People need to use international languages in areas such as trade, tourism, international relations between governments, technology, science and media. Utilizing the teaching methods presented in this paper increases the effectiveness of teaching foreign languages.*

**Key words:** Method, foreign language, teaching, techniques, science and media, connections, technology, effectiveness, international.

### **KIRISH**

Bugungi kunda chet tili nafaqat madaniyatning emas balki ma'lum bir xalqning ham bir qismidir va u bilim olishning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Oliy ta'limda fundamental til tayyorgarligisiz chet tilini yuqori darajada bilish imkonsiz hisoblanadi.

Ko‘pgina davlatlardagi ta’lim muassasalarida o‘quvchilar kamida ikkita xorijiy tilni o‘zlashtiradilar. Aynan globallashuv sababli ham insonlar ikkinchi tilni o‘rganishga ehtiyoj sezadilar.

Tilni o‘qitish umumiy yoki xususiy maktab dasturi sifatida olib borilishi mumkin. Tillarni o‘rgatishning ko‘plab usullari mavjud. Ularning ba’zilari unchalik ham ommalashmagan bo‘lsada, qolganlari ta’lim sohasida juda ko‘p qo‘llaniladi.

**O‘qitish metodi** o‘qitish uchun ishlataladigan tamoyillar va usullarni o‘z ichiga oladi. Keng qo‘llaniladigan o‘qitish usullari sinfda umumiy guruhlarda ishslash, sinfda namoyish etish yoki juft bo‘lib ishslash kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. O‘rgatilayotgan ma’lumot yoki mahoratga qarab tegishli o‘qitish uslubi tanlanadi. Bu tanlov talabalarning iqtidori va ishtiyoqiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Sifatli ta’lim berish uchun o‘qituvchi tomonidan yaxshi usul darsga moslashtirilishi kerak. O‘qituvchining o‘rgatadigan uslubini tanlashda juda ko‘plab imkoniyatlari mavjud. O‘qituvchi o‘z darsi uchun dars ishlanmalarini yozishi, hamkasblari bilan fikr almashishi, dars ishlanma uchun ma’lumotlarni online yoki kitoblardan ham qidirshi mumkin. O‘qitish metodini qo‘llashni hal qilishda o‘qituvchi o‘quvchilarining asosiy bilimlari, hayot va ta’lim borasidagi maqsadlarini ham e’tiborga olishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchilar ularning o‘quvchilari turli yo‘llar orqali o‘rgana olishini bilishadi, ammo deyarli barcha bolalar maqtov eshitganda yaxshiroq va to‘laqonli javob berishga harakat qiladi. O‘quvchilar ma’lumotlarni o‘zlashtirish va o‘z bilimlarini namoyish qilishning turli usullariga ega. O‘qituvchilar ko‘pincha o‘quvchilarning ma’lumotni saqlab qolish va tushunishini mustahkamlashga yordam beradigan bir nechta usullardan foydalanadilar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘nggi yigirma yil ichida ingliz va koreys tillarini o‘qitishning zamonaviy usullari yaxshilandi. Hozirgi kunda ingliz va koreys tillarini o‘rgatishda zamonaviy usul va metodlardan foydalanish maqsadga muofiqdir. Darhaqiqat, til o‘rganuvchilarga chet tillarini o‘rgatish strategiyalarining juda xilma-xilligi mavjud. Bugungi kunda ingliz va koreys tillarini o‘rganish jarayoni ko‘proq talabalar faolligi asosidagi darslarni qamrab oladiva bu vaqt talab etadi. Shunday ekan, chet tilini o‘qitishda zamonaviy usullardan foydalanishimiz kerak. Zamonaviy o‘qitish usullari asosan fan va texnologiya haqida samarali tushunchani shakllantirish yoki rivojlantirishga yordam beradi. Xorijiy tillardan ingliz va koreys tilini o‘qitish usullarining elementlari quyidagilardan iborat:

### **1.O‘quvchi faolligiga yo‘naltirilgan dars metodi(Flipped classroom metodi)**

Asosiy fan va texnologiya bo'yicha zamonaviy o'qitish usullarining muhim xususiyatlaridan biri uning o'quvchilarga yo'naltirilganligidir. Bu esa dars jarayonini samarali olib borishga muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

"Flipped classroom" buingliz tilidan olingen bo'lib "Teskari sinf" degan ma'noni anglatadi. Bu metodda o'quvchi berilgan mavzuga mustaqil o'zi tayyorlanib darsga mavzu yuzasidan bilim olgan holda keladi. Darsda esa o'quvchi o'qituvchi boshchiligidagi guruhlarda va jamoa bo'lib mavzu yuzasidan muhokama, savol javob o'tkazadilar. Sinfda guruh va jamoaviy ishlash orqali e'tibor o'quvchilarga qaratiladi ya'ni bunday darsda o'qituvchi passiv, o'quvchilar aktiv holatda bo'ladilar. O'qituvchi dars davomida faqatgina yo'l-yo'riq ko'rsatib boradi va butun o'quv jarayoni o'quvchilarni faolligini qamrab oladi. Bu metodda o'quvchilar sinfdagi o'zaro munosabatlarda, dars jarayonida sezilarli darajadagi dominator sifatida namoyon bo'ladilar.

## **2. Topshiriqlar yoki harakatga asoslangan metod**

Biror topshiriq yoki faoliyatni tashkillashtirish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va u o'quvchilarni shu yo'l bilan o'rghanishga jalb qiladi ya'ni o'quvchilar berilgan topshiriqnini yozma yoki harakat tarzida bajarishadi. Shuning uchun ham bu uslub topshiriq yoki harakatga asoslangan dars metodi deyiladi. Ushbu interfaol tadbirlar orqali o'quvchilar sinfdagi o'zaro dars muloqotida ishtiroy etishi so'raladi.

## **3. Resursga asoslangan o'qitish metod.**

Bunda chet tili o'qituvchilarini idrokli bo'lishi kerak. Ular o'quvchilarining o'rghanishlari yoki mavzuni aniq tushunishlari uchun barcha kerakli o'quv materiallarini to'plashlari va tarqatishlari kerak. Resurslar muktab muhitidan yoki mavjud bo'lgan boshqa joydan to'planishi mumkin. Bundan tashqari o'quvchining o'zi ham o'quv materialini yoki resursini olib keladigan manba bo'lishi mumkin. Ya'ni ularga ma'lum mavzu beriladi va bunga doir resurslar topib kelishadi.

## **4. Debatlar (tortishuvlar)**

Debatlar o'z nuqtai nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilarining (yoki asosiy qismining) bahslashuvda faol ishtiroy etishini ta'minlovchi o'qitish uslubidir. Bu uslubdan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchi o'z nuqtai nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfnini ikki guruhgaga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi (guruhlarga bir-biriga zid nuqtai nazarlarni aytadi, bahsli topshiriqlar beradi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'лади.

Qo'llanilishi:

- bahsda o'quvchilarining faol ishtiroyi ta'minlanganda;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o'rgatishda;

-fikrni aniq va qisqa ifodalashga imkon berilganda.;

Afzalligi:

-o‘quvchilarни bahslashishga o‘rgatishi;

-munozara madaniyatini shakllantirishi;

-asoslab berish malakasini oshirishi.

### **5. Integrativ (fanlararo bog‘lanish) darslar**

Zamonaviy o‘qitish usullarining hayotiy xususiyatlaridan biri bu integratsiyadir.

O‘quvchilar bir mavzu bo‘yicha g‘oyalarni, masalan, koreys va ingliz tilini o‘rganish orqali xorijiy davlatda ta’lim olish mumkin, chet tilini bilish o‘sha mamlakat madaniyatidan habardor bo‘lishdir, chet tilini bilish IT sohasini o‘rganishga asos bo‘ladi, chet tilini bilish sportning yuqori cho‘qqilarini zabit eta olishga imkon yaradi kabi ijtimoiy fanlar mavzularini boshqa masalalar bilan bog‘laydi va uni integratsiya qiladi. Bu orqali o‘quvchi bir mavzuni o‘rganayotganda ko‘proq bilimga ega bo‘lishi mumkin.

### **6. Demonstratsiya, illyustratsiya va ekskursiya (sayohat) metodi**

Demonstratsiya va illyustratsiya o‘quv ma’lumotlarini aniq usullar orqali bevosita idrok qilish jihatidan muhim ahamiyatga ega. O‘rganilayotgan buyum va hodisalarni to‘liq va aniq tasavvur etgan taqdirdagina o‘quvchilarning olgan bilimlari chuqur va puxta bo‘ladi. O‘quvchilar turmush va texnikadagi narsa, hodisa va voqealarni demonstratsiya metodi orqali bevosita ko‘rib, idrok qilishlari natijasida ular haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarishga muvaffaq bo‘la oladilar. Bu metod dars davomida yoki darsning ayrim qismlarida qo‘llaniladi. Ya’ni Illyustrativ- tasvirlash. yoki rasmlar ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malaka yuqori darajada shakllanadi.

O‘qitish uslubining samaradorliligi insondan insonga va shuningdek, faoliyatdan faoliyatga o‘tganda turlicha bo‘ladi. O‘quvchilarни harakatlantirish, o‘qitish va tinglash orqali o‘qitish bilan albatta asosiy maqsad ma’lumot uzatiladi, ya’ni ular ma’lumotni qabul qilishadi lekin shu ma’lumot har birida turlicha, ya’ni o‘qitishda boshqacha, tinglashda esa butkul boshqacha tarzda yetkaziladi. Har birining o‘z afzallikkari mavjuddir. O‘quvchilarни harakatlantirish orqali o‘qitiladigan metod eng samarali uslub hisoblanadi. Bu metod samarali natija beradi chunki u o‘quvchiga dastlabki o‘z tajribasini beradi. Qolgan ikki metod esa passivroq. Buning sababi ularda siz yoki muloqotni shunchaki tinglaysiz yoki sahifadagi so‘zlarga e’tibor berishga harakat qilasiz. Biroq, o‘quvchilani harakatlantirish orqali o‘qitish metodida ular bevosita topshiriqni bajarishda ishtirok etishadi.

Keling bir misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Bu metodning nomi “33” deb nomланади. Darsning mavzusi: Raqamlarni o‘rgatish. Dastlab, sinf o‘quvchilari ikki

guruhga bo‘linishadi va navbatma navbat sanoq bo‘ylab raqamlarni aytishadi. Bu metodning asosiy sharti uch ishtirok etgan, uchinchi bo‘lib kelgan yoki uchga bo‘linuvchi sonni aytmaslik kerak, uning o‘rniga qarsak chalish talab etiladi. Agar qaysi bir o‘quvchi shu shartni bajarmasdan sonni aytib qo‘yadigan bo‘lsa o‘yindan chiqadi. 33 raqamigacha adashmasdan e’tibor bilan, shartlarni to‘liq bajarib qatnashgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

O‘quvchi: One, ҳарун (bir)

O‘quvchi: Two, 二胎 (ikki)

O‘quvchi: Clap, 박수 (qarsak) 

O‘quvchi: Four , 넷 (to‘rt)

O‘quvchi : Five, 다섯 (besh)

O‘quvchi: Clap, 박수(qarsak) 

O‘quvchi: Seven, 일곱 (yeti)

O‘quvchi: Eight ,여섯(sakkiz)

O‘quvchi: Nine, 아홉 ( to‘qqiz) 

Shu to‘qqiz raqamini aytib yuborgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi, chunki 3 ga bo‘linadigan sonni aytmasdan qarsak chalish kerak edi, bu o‘quvchi aytib yuborgani uchun g‘olib bo‘lmagan hisoblanadi. Bu metod orqali o‘quvchilarning sonlarni ingliz yoki koreys tilida eslab qolishlari oson bo‘ladi va ularning diqqat – e’tiborlarini jamlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish lozimki, chet tili fani o‘qituvchilari samarali dars berish uchun metod tanlayotganda o‘qitishning to‘rt ko‘nikmalarni: o‘qish, tinglash, yozish va gapishtishni o‘quvchilarda rivojlantirgan holda samarali dars tashkil qilishi lozim. Shu holatdagina qo‘llangan o‘qitish uslublari va metodlari o‘z samarasini ko‘rsatadi. O‘quvchilarda shu to‘rt ko‘nikma yaxshi shakllansa o‘quvchilarni chet tillarni o‘rganishi osonlashadi. Bu esa o‘quvchilarni chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilari yuqorida keltirilgan metod va usullardan o‘z darslarida samarali foydalanishsa ko‘zlagan maqsadlari amalga oshadi deb umid qilaman.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Bim I.L. Chet tillarini o‘qitish metodikasi masalasi to‘g‘risida. // IYaSh 1974, - N2 – S, 19 – 32.

2. Volvin A.V. Buyuk Britaniya va AQSH uslubiy tizimlarida chet tillarini o‘rganishga kommunikativ yondashish. M., 1985
3. Ingliz tili o‘qitishning kommunikativ metodikasiga kirish – Oksford universiteti matbuoti, 1997 yil.
4. Dufo Bernard. Tillarni o‘qitish amaliyotida talabalarning o‘zaro aloqasi va tasavvur kuchi // Chet tillarida kommunikativ o‘qitish: universitetlararo. Shanba ilmiy. PSTU materiallari – Perm, 1998 y.
5. R.P Milrud, I. R. Maksimova Chet tillarni kommunikativ o‘qitishning zamonaviy kontseptual amoyillari. // IYAS., - 2000 – N4 – S,9 – 15, N5 – S, 17 - 22.
6. Yakubov, Fazliddin Utaganovich. “Improving communicative language skills through role playing activity.” *Science and Education* 3.2 (2022): 1006-1010
7. Brown H.D. (2001). *Teaching by principles: An attractive approach to language pedagogy*. New York: Longman
8. Berer, Marge and Frank, Christine and Rinvolucri, Mario. *Challenge to think*. Oxford University Press, 2002
9. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
10. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.
11. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. *Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions*, 271-273.
12. Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. *Literature and History*, (1), 89-91.
13. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257.
14. Shaykhislamov, N. (2020). Main Directions and Interactive Methods of Student Speech Growth in Uzbek Language Classes. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(7), 115-120.
15. Shaykhislamov, N. (2020). Semantic and Linguocultural Features of English and Uzbek Proverbs with Concept of Friendship. *Студенческий вестник*, 28(126), 29-30.
16. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING

METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 154-160.

17. Begmurzayevich, D. B. (2022). O 'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *Ijodkor o'qituvchi*, 2(20), 52-59.
18. Djalalov, B. B., & Mirzaahmedova, S. N. Q. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 68-80.
19. Karimova, B. (2019). POSSIBILITIES OF FORMATION OF NATIONAL PRIDE WITH USING KHADITHS IN THE FIRST-YEAR PUPILS OF ORPHANAGES. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11).
20. Karimova, B. K., & Oripova, M. S. (2021). Formation of national pride based on hadiths in primary school children of houses of kindness. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 652-665.
21. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8547-8555.
22. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. *JCR*, 7(12), 3133-3139.
23. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
24. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 8(1), 75-77.
25. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
26. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.

27. Ugli, T. J. U. (2022). The role of aesthetic education in the preparation of future fine art teachers for professional activity. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(12), 60-64.
28. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.
29. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
30. Уринова, Н. М. (2020). ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТЛАРИДА БҮЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ БҮЙИЧА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 7).
31. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.